



2-TOM, 6-SON

KORXONA AYLANMASIDAN OLINADIGAN SOLIQLAR HISOBI VA AUDITI

Qo'zimurodova Sabohat Mamatmuso qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, avvalambor, soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlarini kamaytirish, ularni hisoblash mexanizmini soddallashtirish muhim masalaga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada esa korxona aylanmasidan olinadigan soliqlar va ularning hisobotlari audit haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Soliqlar turlari, aylanmadan olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), daromad solig'i, hisob siyosati, auditorlik tekshiruvi

Kirish. Mamlakatimizda soliq sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi soliq yukini kamaytirish orqali ular iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish, investition faolligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishga erishish hamda soliq tushumlarida yuz berishi mumkin yo'qotishlarni soliq solinadigan bazaning kengayishi hisobiga qoplash hisoblanadi. Soliqlar va to'lovlar korxona, tashkilotlarda o'tkaziladigan kompleks auditorlik tekshiruvining eng muhim va o'ta mas'uliyatli obyektlaridan hisoblanadi. Bu obyektlar to'g'risida axborotlarning realligini aniqlamasdan turib korxonaning moliyaviy hisobotini to'g'ri tuzilganligiga auditorlik xulosasini berib bo'lmaydi. Soliqlar va to'lovlar auditini o'tkazish uchun auditorlar respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlarini, avvalambor, Soliq kodeksini, unda belgilangan tartib-qoidalarni juda chuqur va yaxshi bilishi lozim. Har yilgi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha stavkalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Masalan, 2016-yil uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari pragnozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-son qarori bilan belgilangan.

Keling endi shu o'rinda soliqlar va ularning turlari haqida ham ozroq ma'lumotlarga ega bo'sak:

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.





2-TOM, 6-SON

2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.

4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

ylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilariga quyidagilar kiradi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar. Soliq Kodeksning “Jami daromad” bobiga muvofiq aniqlanadigan jami daromad aylanmadan olinadigan soliq obyektiidir, bundan ushbu Kodeksning “Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar” moddasiga muvofiq, ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog‘ida inobatga olinmaydigan daromadlar kiritilmaydi. Soliq Kodeksning 463- moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e’tirof etiladi, bunda quyidagilar kiritilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo‘lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko‘p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo‘lsa;

4) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiylar daromadning 15 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etsa. Va boshqalar.

Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari soliq to‘lovchilar turlari va ularning tarkibiga ko‘ra bir biridan farq qiladi. Quyida ulardan ba’zi birlarni keltirib o‘tamiz:

bojxona brokyerlari	5
Lombardlar	25
rokerlik <u>idoralari</u> , shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomalari ishlari bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslar hamda telekomunikatsion provayderlar	25



2-TOM, 6-SON

Sug‘urta agentlari, shuningdek sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga <u>oshiradigan yuridik shaxslar</u>	13
Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8
Va boshqalar.	

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchini kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davridan keyingi davrning 15-fevralidan kechiktirmay;

2. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsyaning ma’lumotlariga ko‘ra hisoblab chiqarilgan soliqni o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar hisoblab chiqarilgan soliqni chet davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valyutasida to‘lashi mumkin. Bunda milliy valyutada ifodalangan soliq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan soliq to‘langan sanadagi kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqariladi. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar, shuningdek Soliq Kodeks 385-moddasining uchinchi qismida ko‘rsatilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar soliqni taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya yoki soliq organining xabarnomasi asosida, daromad olingan oydan keyingi oyning o‘n beshinchini kunigacha har oyda to‘laydi. Yil tugagach, soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1-iyunidan kechiktirmay soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi lozim.

Quyidagilar soliq to‘langan sana deb hisoblanadi: soliq soliq agentlari yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag‘idan to‘langan taqdirda — bankdagi hisobvarag‘idan mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun; jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag‘lari kiritilgan taqdirda — bank kassasiga mablag‘lar to‘langan sana. Soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan soliqni to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida



2-TOM, 6-SON

to‘langan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalar O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lashda Soliq Kodeksning 342-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi. Soliqni hisobga olish soliq davri yakuni bo‘yicha jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi.

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i - har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko‘p qirrali bilvosita soliqdir. Qo‘shilgan qiymat o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan: □ soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar; □ O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar; □ tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar; □ oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Xulosa. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, soliq tizimidagi o‘zgarishlar iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy dastaklaridan biridir. Shu sababdan respublikamizda o‘ziga xos soliq siyosati ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra soliq stavkalarini bosqichma-bsqich tushirib borish va xo‘jaik yurituvchi sub’ektlar faoliayini erkinlashtirishdan iborat. Xususan, oborotdan olinadigan soliqlar stavkalarining tushirilishi va uni hisoblash tizimining takomillashtirilishi bevosita xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar mablag’larining ko‘proq qismini o‘z ixtiyorida qoldirish imkoniyatini bermoqda. Bu esa bevosita byudjetdagi mablag’larning ko‘payishiga olib keladi. Bu prezidentimiz tomonidan puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatining samarasidir. Oxirgi yillarda soliqlar bo‘yicha ko‘p o‘zgarishlar bo‘lsada, oborotdan olinadigan soliqlar hisoboti va tuzish tartibi ham o‘zgarishsiz qoldi. Hisobotni tuzish davrlari choraklik hisobotda yuritiladi. Bugungi kunda, yuridik shaxslarning soliq hisobotlarini yanada ixchamlashtirish va takomillshtirish choralari ko‘rib chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan oborotdan olinadigan soliqlarni audit tekshiruvdan o‘tkazish ehg muhim ahamiyat kasb etadi. Men quyidagi takliflarni berib o‘tishim mumkin:

Oborotdan olinadigan soliqlar hisobotini yillik hisobot tizimiga o‘tkazish;





2-TOM, 6-SON

Oborotdan olinadigan solig‘i hisoboti rekzivitlarini umumlashtirish.

Oborotdan olinadigan soliq hisobotlarini auditorlik tekshiruvidan o’tkazish.

Ushbu takliflar amalga oshirilishi korxonadagi hisob tizimi va bevosita moliyaviy holatini ham ancha yaxshilanishinishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.–T: O‘zbekiston, 2010.-126-166 modda
2. «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» qonun. 1996 yil 30 avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilga asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi Qarori . 2012 yil 24 dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Xalqaro tashkilotlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirliklari va Qo‘mitalari me’yoriy-huquqiy hujjatlari
5. Qudratov T. Q., Fayziyeva N. Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Darslik.- Samarqand,2010.- 12-bet
6. Qodirxonov S., Mamatqulov Sh. Xitoy Xalq Respublikasida buxgalteriya hisobi, auditorligini tashkil qilish va kadrlar tayyorlash xususiyatlari. Toshkent-Andijon, 1992. 8-bet
7. Fulomova F.F. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. - T.: Norma MCHJ, 2009. - 495 bet.
8. Yaxyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: G‘ofur G‘ulom, 2000.- 41-58 betlar

